

**O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTONNING ANDIJON (KAMPIROBOD) SUV
OMBORINI BIRGALIKDA BOSHQARUVI BORASIDAGI YANGI
KELISHUVINING O'ZBEKISTON IRRIGATSIYA TIZIMIGA TA'SIRI**

Xudoyberdiyev Xumoyunbek Xabibulla o'g'li

xumoyunxudoyberdiyev80@gmail.com

Ataboyev Javohir Sarvar o'g'li

“Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari
Instituti” Milliy Tadqiqot Universiteti 2-bosqich talabalari

javoxirbekjavoxirbek92@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda yurtimiz hayotida suvdan foydalanish bo'yicha muhim diplomatik kelishuvlardan biri bo'lgan O'zbekiston va Qirg'iziston o'rta sidagi Andijon (Kampirobod) SUV omborining SUV resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi bitimining ijtimoiy va iqtisodiy ro'lini qiyosiy taxlili asosida yoritilgan. Kampirobod SUV omboridagi SUV resurslarini birgalikda boshqarish, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rta sidagi bir qancha chegaraviy kelishmovchiliklarni hal qilishdagi o'rni batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: *SUV ombori, SUV taqsimoti, transcheagaraviy daryolar, SUV oqimi, SUV diplomatiyasi, gidrotexnik inshoot, delimitatsiya, demarkatsiya.*

**THE EFFECT OF THE NEW AGREEMENT ON THE JOINT
MANAGEMENT OF THE ANDIJAN (KAMPIRABAD) WATER
RESERVOIR OF UZBEKISTAN AND KYRGYZSTAN ON THE
UZBEKISTAN IRRIGATION SYSTEM**

ABSTRACT

In this article, the social and economic role of the agreement on the joint management of water resources of the Andijan (Kampirabad) reservoir between Uzbekistan and Kyrgyzstan, which is one of the important diplomatic agreements on the use of water in the life of our country today. explained on the basis of comparative analysis. The joint management of water resources in the Kampirabad reservoir and its role in resolving several border disputes between Kyrgyzstan and Uzbekistan are covered in detail.

Key words: reservoir, water distribution, transboundary rivers, water flow, water diplomacy, hydrotechnical structure, delimitation, demarcation.

KIRISH (INTRODUCTION). Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda dunyoning 30 foizga yaqin aholisi xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniga ega emas. Tadqiqotchilarning fikricha, 2030-yilga borib, yer shari aholisining yarmi suv tanqis bo'lgan hududlarda yashashga majbur bo'ladi. Ko'p mamlakatlarda ichimlik suvi va sug'orish suvi tanqisligi tobora oshib bormoqda. Shuningdek, yurtimizda ham suv bilan bog'liq ko'pgina muammolar sodir bo'lmoqda. Bular qatoriga ichimlik suvini ifloslanishi, suv tanqisligi va suvdan foydalanish bo'yicha qo'shni davlatlarimiz bilan bo'layotgan muzokaralarni ham kiritishimiz mumkin. Yurtimizda bunday ishlarni oldini olish maqsadida boshqa davlatlar bilan ko'pgina kelishuvlar imzolanmoqda.

O'zbekistonliklar Andijon, qirg'izistonliklar Kampirobod deb biluvchi suv ombori - Farg'ona tog' tizmasining janubiy-g'arbiy qismlaridan boshlanadi va ikki davlat chegara qismida joylashgan. Bu suv ombori O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara hududida joylashganligi sababli shu kungacha jiddiyatli vaziyatlari keltirib chiqarmoqda. 1982-yilda Andijon viloyatidagi Qoradaryo suv oqimida qurilgan **Andijon(Kampirobod) suv ombori - gidrotexnik inshoot hisoblanib**, ko'p yillar davomida daryo suvini tartibga solishga va irrigatsiya-energetika maqsadlaridan foydalanishga mo'ljallangan. Andijon suv ombori balandligi 121 m, uzunligi 1040 m, suv sig'imi 1,9 mlrd. m³. Gidrouzel tarkibiga to'g'on, suv o'tkazuvchi inshootlar va

GES kiradi. Andijon(Kampirobod) suv omboriga 4ta daryo – TAR, Qurshab, Yassi va Qoradaryo quyiladi. Suv o‘tkazuvchi inshootlar favqulodda toshqinda 1700 m³/s gacha suv o‘tkazishga va umumiy suv sarfi 230 m³/s bo‘lgan irrigatsiya kanallariga oqizishga mo‘ljallangan.

GES kanallarga tushayotgan suv hisobiga ishlaydi, 192 m³/s suv sarfiga mo‘ljallangan, quvvati 140 MVt. Andijon suv omborining suvi Farg‘ona vodiyisida 273 ming gektarga yaqin maydonning suv ta’minotini yaxshilaydi, qo‘sishma 35 ming gektar yerni sug‘orish imkoniyatini beradi.

SSSR 1991-yilda parchalanganidan keyin Andijon (Kampirobod) suv ombori ikki mustaqil davlatlar Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi hududiy nizo markazida bo‘lgan. SSSR davrida Andijon suv ombori qurilganida O‘zbekiston chap qirg‘oqdan uzunligi 200 kilometrdan ortiq bo‘lgan kanal qurish majburiyatini olgan, biroq u hali ham qurib bitkazilmagan. Ikki davlat o‘rtasidagi shu paytgacha bo‘lgan muzokaralarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2021-yilning 23-mart kunida bo‘lib o‘tgan Qirg‘iziston—O‘zbekiston Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish milliy qo‘mitasi raisi Qamchibek Tashiev boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi O‘zbekistonga tashrif buyurgan. Ikki tomonlama muzokaralardan so‘ng Qamchibek Tashiev Kempirobod suv ombori to‘g‘oni O‘zbekistonga o‘tishiga qaror qilingani, biroq qo‘shnilar bir qancha shartlarni bajarishi shart ekanligi to‘g‘risida muzokaralar olib borildi.

2022-yilning oktabr oyidagi muzokaralar natijasida Qamchibek Tashiev va O‘zbekiston delegatsiya rahbarlari bir necha kelishuvlarga erishishdi: “Chegara chizig‘i bo‘ylab tushgan Kampirobod suv omborining 19 ming gektar yeri Qirg‘izistonda qoladigan, 4485 gektari esa O‘zbekistonga o‘tishi kelishilgan;

Suv omborini, Qirg‘iziston bilan O‘zbekiston o‘rtasida tuzilgan va har ikki tarafdan 12 nafardan vakil kiritilgan qo‘shma korxona boshqaradi;

Suv hajmi gorizontal darajasi 908 metrdan 900 metrga tushiriladi, buning ortidan 1246 gektar joy bo‘shaydi va bu yerlar ham Qirg‘istonga o‘tadi”;

Ushbu muzokara natijasi haqida dunyo maqolalarida ham fikrlar berib o'tilgan. Ularning bittasiga to'xtaladigan bo'lsak: "Qirg'iziston O'zbekistonga 429 hektar yer ajratadi, bu chegaralarni belgilash jarayonida kelishilishi kerak. Buning evaziga O'zbekistonning vodiy hududlaridagi 294 hektar yerni Qirg'izistonga berish bo'yicha kelishuvga erishildi. Maydoni qariyb 5 ming hektar bo'lgan suv ombori uchun O'zbekiston tomoni 19 ming hektar yer ajratmoqda. SSSR davrida ham O'zbekiston 4000 hektardan ortiq qolgan yer uchastkalarini kompensatsiya sifatida bergen (1970-yillarda)". [Haniya Ali. The Kempirabad Reservoir: Achieving Depth in Kyrgyz-Uzbek Relations article]

2022-yil 3-noyabr kuni bo'lib o'tgan muhim yig'ilishga to'xtaladigan bo'lsak, unda O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Vladimir Norov qo'shni Qirg'iziston tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubaev bilan uchrashadi va olib borilgan muzokaralar so'nggida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari o'rtaida qator kelishuvlar imzolandi.

O'zbekiston delegatsiyasining Bishkekga tashrifi doirasida quyidagi hujjatlar imzolandi:

- O'zbekiston-Qirg'iziston Davlat chegarasining ayrim uchastkalari to'g'risidagi shartnoma;
- Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi Bitim;
- O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Qirg'iz Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv resurslari xizmati o'rtaida suv xo'jaligi masalalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida Bitim;
- Markaziy Osiyo xalqaro instituti va Qirg'iz Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Diplomatik akademiya o'rtaida hamkorlik Shartnomasi;
- "O'zarxiv" agentligi va Qirg'iz Respublikasi Raqamlı rivojlanish vazirligi o'rtaida hamkorlik Memorandumi. [<https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-qirgiziston-ortasida-kampirobod-suv-ombori-boyicha-bitim-imzolandi>]

Shuningdek, tashqi ishlar vazirlarining Qo'shma bayonoti hamda 2023-2024 - yillarda O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iz Respublikasi tashqi siyosat idoralari

o‘rtasida hamkorlik dasturi ham qabul qilindi. Qirg‘iziston bilan imzolangan bu kelishuv kelajakda yaxshi qo‘snnichilik aloqalarini olib borilishiga imkon yaratadi.

Keyinchalik, Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasidagi davlat chegarasining alohida uchastkalari to‘g‘risidagi shartnomaga hamda Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to‘g‘risidagi bitimni ratifikatsiya qilishga oid qonunlarni imzoladi.

Bu muhim hujjatlarning imzolanishi, davlat rahbarlarining siyosiy irodasi bilan ikki qardosh xalq o‘rtasidagi hurmat va yaxshi qo‘snnichilik mustahkamlanishi, 30 yildan beri hal bo‘lmayotgan masalalarni hal etishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Mazkur xalqaro shartnomalar O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri V.Norov boshchiligidagi delegatsiyaning 2022 yil 3 noyabrdagi Bishkek shahriga tashrifi chog‘ida imzolangan.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasidagi davlat chegarasining alohida uchastkalari to‘g‘risidagi shartnomaga 13 ta moddadan iborat. **Ushbu shartnoma natijasida** o‘zbek-qirg‘iz Davlat chegarasining 35 ta uchastkadagi umumiy uzunligi 302,29 km bo‘lgan chizig‘i belgilandi.

O‘zbekistonga 4957 gektardagi Andijon suv ombori hududi hamda to‘g‘onga xizmat ko‘rsatish va uni muhofaza qilish uchun qo‘srimcha 19,5 gektar yer maydoni o‘tkazilishi, Qirg‘izistonga esa kompensatsiya tarzida 1019 gektar yaylov yerkari berilishi belgilandi.

Shuningdek, Qirg‘izistonga Andijon suv omborining qurilmay qolgan Kampirobod chap qirg‘oq kanali uchun “G‘ovasoy” uchastkasidan 12 849 gektar yer maydoni kompensatsiya tarzida beriladi. Bunda Qirg‘iziston tomoni “G‘ovasoy” daryosining tabiiy oqimiga to‘sinqilik qiladigan gidrotexnik va boshqa inshootlarni qurmaslik, suvning texnik ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini oladi.

Andijon suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish masalalasi va So‘x tumanidagi “Chashma” bulog‘i joylashgan uchastka alohida shartnomalar bilan tartibga solinishi kelishib olindi.

Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to‘g‘risidagi bitim 11 ta moddadan iborat. Unda Andijon suv ombori suv resurslarini birgalikda boshqarish bo‘yicha Qo‘shma komissiya tuzildi va uning faoliyati to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Ushbu shartnomani imzolash orqali chegara bilan bog‘liq barcha nizolar to‘liq hal qilindi, chegaralarning yaxlitligi kafolatlandi va chegarada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan keskin qarama-qarshiliklarning oldi olindi. Suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha uzoq muddatli mintaqaviy kelishuv bo‘yicha muzokaralar olib borishdan tashqari, noroziliklarni bartaraf etish va ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash tiklash imkonini berdi.

Bundan tashqari, 8000 ga yaqin fermerlar doimiy suv ta’mnoti bilan ta’minlanadigan bo‘ldi. Transport va aloqa bilan bog‘liq muammolar bartaraf etilib, avvalgi yer olish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar to‘liq bajarildi.

Andijon suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish bo‘yicha Bitimda ikkala tomonlarining o‘zaro majburiyatlari aks ettirilgan.

O‘zbek tomoni suv omboridagi suv sathini 900 gorizontaldan yuqori bo‘lmagan sathda ushlab turish, Qirg‘iziston fuqarolarining suv ombori suviga erkin kirishi va undan foydalanishini (hayvonlarga suv berish, sug‘orish, baliq ovlash) ta’minalash, atrofida muhandislik-texnik inshootlarni o‘rnatmaslik majburiyatlarini olgan. Qirg‘iziston tomoni suvni muhofaza qilish zonalari o‘rnatalishi, undan foydalanish rejimiga rioya etilishini ta’minalash majburiyatlarini olgan.

<https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-qirgiziston-ortasida-kampirobod-suv-ombori-boyicha-bitim-imzolandi>

Muzokaralar davomida Andijon suv omborining xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha O‘zbekiston va Qirg‘iziston tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar ham kelishib olindi. **Unga ko‘ra**, O‘zbekiston tomoni suv omborining xavfsizligini ta’minalaydi, ekspluatatsiya qiladi, texnik xizmat ko‘rsatadi, Qirg‘iziston tomoni bilan kelishilgan limitlar doirasida suv chiqaradi.

Qolaversa, Andijon suv ombori suv resurslarini birqalikda boshqarishning huquqiy asoslari yaratilishi ikkala davlat uchun ham foydali bo‘ladi va buning natijasida 2,5 million tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va 500 million dollar miqdoridagi mahsulotlarni eksport qilish uchun 8 mingga yaqin fermer xo‘jaliklarini suv bilan uzlusiz ta’minalash imkoniyati paydo bo‘ladi deb hisoblayman.

Bundan tashqari, ushbu kelishuvlarning qabul qilinishi transchegaraviy suv resurslaridan oqilona va foydali foydalanishni osonlashtirishi hamda ikki tomonlama hamkorlikni yangi mukammallik darajasiga ko‘tardi.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak, chegara chizig‘ini delimitatsiya qilishni yakuniga yetkazish orqali mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanib, kelishmovchiliklar bartaraf etildi.

O‘ylaymizki, yurtimizda olib borilayotgan bunday ishlar natijasida O‘zbekistonda aholining suv bilan ta’milanganlik darajasi yanada yaxshilanadi va suvdan foydalanuvchi sohalar uchun ham bir qancha qulayliklar mavjud bo‘ladi.

Andijon suv ombori kabi nizoli masalalar yechimini faqatgina o‘zaro izchil integratsiyalarda ko‘rishimiz mumkin. Ushbu integrasiya chegaralarga qo‘sishimcha sim to‘siqlar o‘rnatish emas, balki chegaradagi cheklavlarni yumshatish, aholi qatnovini erkinlashtirish, aholiga o‘zaro savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni erkin qurish imkonini berish orqali chegara chizig‘i va chegara oldi hududidagi aholi punktlaridagi tarangliklarni yumshatish orqali erishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shamsutdinov, R.T; Ishoqov, A.A.. *Andijon tarixidan lavhalar*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Сатыбалдиев Б. С., Шербаева З. Э., Камчиев У. М. (2018) (ru). Пограничные вопросы, возникающие в Ферганской долине из-за водохранилищ (Известия ВУЗов Кыргызстана nashri). pp. 32—35. ISSN 1694-7681
3. Кольченко В. А. (2006) (ru). Из истории археологии Кыргызстана (1950 - нач. 1970 гг.) (Кыргызстан: история и современность nashri). Бишкек. pp. 105—122. ISBN 5-8355-13771.
4. Зверинцева Татьяна. „Кому Кемпир-Абад, а кому Андижансое. Передача водохранилища в Ошской области Узбекистану вызвала протесты и задержания в Кыргызстане“ (ru) (deadlink). *Медиазона Центральная Азия* (25-oktabr 2022-yil).
5. [Haniya Ali. The Kempirabad Reservoir: Achieving Depth in Kyrgyz-Uzbek Relations article]
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Andijon_suv_ombori
- 7.<https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-qirgiziston-ortasida-kampirobod-suv-ombori-boyicha-bitim-imzolandi>
- 8.<https://uzreport.news/world/qirgizistonda-kampirobod-suv-omborining-ozbekistonga-otishiga-qarshi-chiqqan-22-nafar-siyosatchilar>
9. <https://lex.uz/en/docs/-6302571>
- 10.<https://qalampir.uz/uz/news/mirziyev-kampirobod-suv-ombori-tugrisidagi-bitimni-imzoladi-73056>